MINTAQA MAMLAKATLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Davronova Feruza,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti, s.f.f.d. (PhD)
f.davronova@uzswlu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning institutsional mexanizmlari va amaliy islohotlar yo‘nalishlari kompleks tahlil qilinadi. Mintaqa davlatlarida gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilish tizimidagi ishtirokini kengaytirish, siyosiy vakilligini kuchaytirish hamda ayollar yetakchiligini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, siyosiy partiyalarda gender tengligini ta’minlash, gender kvotalarini joriy etish, xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, gender budjetlashtirish va gender auditi mexanizmlarining ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, gender tengligi, siyosiy ishtirok, siyosiy vakillik, ayollar yetakchiligi, gender kvotalari, institutsional islohotlar, davlat boshqaruvi, gender budjetlashtirish, mintaqaviy hamkorlik.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ институциональных механизмов и основных направлений практических реформ, направленных на повышение социально-политической активности женщин в странах Центральной Азии. Рассматриваются вопросы обеспечения гендерного равенства, расширения участия женщин в политических процессах, государственном управлении и системе принятия решений, укрепления их политического представительства и развития женского лидерства. Особое внимание уделяется значению обеспечения гендерного равенства в политических партиях, внедрения гендерных квот, подготовки женщин к занятию руководящих должностей, а также механизмов гендерного бюджетирования и гендерного аудита.

Ключевые слова: Центральная Азия, женщины, социально-политическая активность, гендерное равенство, политическое участие, политическое представительство, женское лидерство, гендерные квоты,

DOI: 10.5281/zenodo.24240451

институциональные реформы, государственное управление, гендерное бюджетирование, региональное сотрудничество.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of institutional mechanisms and practical reform priorities aimed at enhancing women's socio-political engagement in Central Asian countries. It examines issues related to ensuring gender equality, expanding women's participation in political processes, public administration and decision-making, strengthening their political representation, and promoting women's leadership. Particular attention is paid to ensuring gender equality within political parties, introducing gender quotas, preparing women for leadership positions, and the importance of gender-responsive budgeting and gender audit mechanisms.

Keywords: Central Asia, women, socio-political engagement, gender equality, political participation, political representation, women's leadership, gender quotas, institutional reforms, public administration, gender-responsive budgeting, regional cooperation.

Ayollar siyosiy faolligining dolzarbligi, eng avvalo, jamiyatda demokratik tamoyillarni qaror toptirish, gender tengligini ta’minlash, davlat boshqaruvida ijtimoiy vakillikni kengaytirish hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning manfaatlarini ifodalash zarurati bilan belgilanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi nuqtai nazaridan mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mintaqadagi davlatlarda siyosiy modernizatsiya, ijtimoiy transformatsiya, davlat boshqaruvini takomillashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonlari xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan ham uzviy bog‘liq.

Mintaqamizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha amaliy islohotlar yo‘nalishlari o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunga yetakchi ayollarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati darajasidagi loyihalar amalga oshirilmaganligi kabi holatlar sabab bo‘lmoqda. Buning uchun mamlakatda ayollar siyosiy faolligini oshirish uchun, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarga a’zolik darajasini kuchaytirish talab etiladi. Har bir siyosiy partiya tarkibida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha maxsus harakatlar rejasining ishlab chiqilishi muhim asos vazifasini o‘taydi. Xotin-qizlarning partiyadan siyosiy vakillikka nomzod sifatida ko‘rsatilishi esa davlat hokimiyatida ishtirok etish va undan foydalanish imkonini beradi. Saylovda gender kvotalari vaqtinchalik maxsus chora sifatida kutilgan natijaga erishilgach, o‘z kuchini yo‘qotadi. Mahalliy kengashlarda deputatlikka erishish ikkala jins vakillari uchun ham siyosiy tajriba va siyosiy kareraning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlar siyosiy faoliyatining

navbatdagi bosqichi parlament yoki mahalliy kengashlarda muayyan vazifada o‘z o‘rnida sobitqadam qolishi, qarorlar qabul qilishda ishtirok etishidadir. Nihoyat, parlamentda ayollarni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga imkon beradigan ayollar fraksiyalarini [3] yaratish muhim hisoblanadi.

Qolaversa, mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda muhim institutsional asoslar, jumladan, parlamentning rolini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

1) Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha komissiya, parlamentning yuqori palatasida Ayollar va gender tengligi bo‘yicha qo‘mita tuzildi. Uning asosiy vazifasi sifatida gender tengligini ta’minlash, qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu sohada parlament nazoratini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish belgilandi. Qo‘mita ushbu sohadagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qiladi;

2) Barqaror rivojlanishning 2030 yilgacha bo‘lgan davrida milliy maqsad va vazifalarning bajarilishini monitoring qilish bo‘yicha Parlament komissiyasi tashkil ətildi. Xususan, mazkur komissiya 5-maqsad – gender tengligiga erishishda qonunchilik ijrosini nazorat qilish, Barqaror rivojlanish maqsadlarining bajarilishi ustidan parlament va deputatlik nazoratini amalga oshirish, qonun loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar tayyorlash kabi vazifalarni ham amalga oshiradi;

3) Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tuzildi, uning asosiy vazifasi ayollar va qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, qonunlar ijrosini muvofiqlashtirishdan iborat. Shu bilan birga, jamoatchilik kengashi BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi, Pekin harakatlar platformasi va Milliy harakat rejasini amalga oshirilishini ta’minlaydi;

4) Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi, uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni mehnat bozorida talab qilinadigan bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallashlari uchun etarli ko‘mak berishdan iborat;

5) O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federasiyasi, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi qoshida maxsus respublika ishchi guruhi tuzildi, u mamlakatning barcha huquqlarida ayollar muammolarini o‘rganadi, manzilli yordam ko‘rsatish bo‘yicha zarur choralarni amalga oshiradi. Ayollar muammolari bilan kurashuvchi yangi tizim «Ayollar daftari» bo‘lib, yordamga muhtoj ayollarni aniqlash, ularga 30 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish imkonini beradi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati «2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida»gi qarorini [1] (28.05.2021) ishlab chiqdi. Ushbu strategiya 2030-yilgacha ayollar siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta’minlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy mamlakatlar bilan parlamentlararo munosabatlarni mustahkamlash, yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash bo‘yicha dastur va loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha bir qator rejalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Gender strategiyasi mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish maqsadlari va qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilib, qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga asoslanadi [1]. Shu nuqtai nazardan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda gender tengligini ta’minlaydigan normativ-huquqiy bazani mustahkamlash lozim. Buning uchun saylov va kvotalar to‘g‘risidagi qonunlarga o‘zgartirish kiritish, uni amalda tatbiq etilishini nazorat qilish o‘z navbatida gender tenglik strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichga erishishga olib keladi. Davlat boshqaruvi organlari lavozimlariga ayollarni tayinlash, ayniqsa, yosh ayollarning siyosatga ishtirokini ta’minlash muhim hisoblanadi. Buning uchun hududlar kesimida gender tahlil va monitoring tizimini tashkil etish talab ətiladi.

Faol ayol nomzodlar bilan ishlash, ularni o‘qitish, siyosatda ayollarga nisbatan diskriminasiya, tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bilan kurashish, saylovoldi kompaniyasi mablag‘laridan teng foydalanish, gender tengligi bo‘yicha aniq strategiyalar, islohotlar siyosati, xulq-atvor qoidalari va amaliyotini ishlab chiqish, gender byudjeti va gender auditini (audit – o‘z-o‘zini baholash) o‘tkazish lozim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, gender auditi gender tengligi yo‘lidagi asosiy to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradigan vosita hisoblanadi [4].

Aslida byudjetlashtirish hukumat tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim siyosiy jarayon bo‘lib, butun xalqning farovonligi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda byudjetlashtirish siyosatida gender tengligini ta’minlash majburiyatining aks etishi talab etilmoqda. Xususan, gender byudjetini rejalashtirish, dasturlash va byudjetlashtirish ayollar huquqlarini amalga oshirish va tengligining ta’minlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Gender auditi gender byudjeti jarayonining bir qismi hisoblanadi, ya’ni gender audit davlat byudjetini har tomonlama ko‘rib chiqish va tekshirishni ko‘zda tutadi. Bunda jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining manfaatlari va ehtiyojlari mutanosib ravishda hisobga olinishi kerak. Birinchi navbatda, ayollar va erkaklar, qizlar va o‘g‘il bolalar, pirovardida butun jamiyat manfaatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi [5]. Mazkur mexanizm quyidagi 4 ta tashkiliy o‘lchovlar, ya’ni siyosiy iroda, texnik imkoniyatlar, javobgarlik va tashkilotchilik madaniyati transformaцion

integrasiyaga tayyor bo‘lgandagina samaradorlikka erishish kuzatiladi. Mamlakatimizda gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va byudjetlashtirish jarayoni gender strategiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yilgan. Gender byudjetlashtirish gender tengsizlikni kamaytirish, teng ravishda davlat xizmatlaridan foydalanish, oilaviy byudjet mablag‘laridan foydalanishda tenglik ta’minlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, «genderga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish» tizimini bosqichma-bosqich joriy etilishini ko‘zda tutadi.

Mazkur ustuvor vazifalar Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, rahbar ayollarni ko‘paytirish maqsadida davlat boshqaruvida ayollar faolligini oshirish dasturiga ko‘ra, Davlat boshqaruvi akademiyasi rahbar ayollarni tayyorlash bo‘yicha har yili kamida 100 nafar ayolni o‘qitishi rejalashtirildi. Jumladan, har bir vazirlik, davlat idoralari, bank va boshqa tashkilotlar bir-ikki yil ichida o‘z tizimidagi ayollarni rahbarlikka o‘qitib, kamida 1 nafar o‘rinbosarini ayollardan tayinlashi belgilab qo‘yildi [2].

Ijtimoiy-siyosiy faol ayollarni shakllantirishda siyosiy ijtimoiylashuv jarayonining bosh bo‘g‘ini sifatida oila institutini mustahkamlash, an’anaviy milliy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, sharqona va zamonaviy oilaning uyg‘unligiga ɘrishish ham ijobiy natijalarga olib keladi. Bunda zamonaviy o‘zbek ayoli obrazi vorisiylik va zamonaviy ayol tamoyillarining muvozanati (sintezi) asosida maydonga chiqadi. Faol ayol jamiyatning barcha jabhalarida faoliyat yuritish, o‘zini rivojlantirish va istiqbolini belgilash salohiyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish zamonaviy siyosiy taraqqiyot, demokratik institutlarni mustahkamlash va gender tengligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki nafaqat ularning konstituцiyaviy huquq va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Mintaqada xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish jarayoni huquqiy asoslarni takomillashtirish, gender tengligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish va institusional mexanizmlarni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Xususan, siyosiy partiyalar faoliyatida ayollar ishtirokini kengaytirish, saylov jarayonlarida gender kvotalaridan samarali foydalanish, parlament va mahalliy vakillik organlarida xotin-qizlarning siyosiy vakilligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda teng huquqli va faol sub’yekt sifatida ishtirok etishi esa Markaziy Osiyoda inklyuziv

boshqaruv tizimini rivojlantirish, demokratik institutlarni mustahkamlash va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori. Elektron manba: https://lex.uz/docs/5466673

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni. Elektron manba: http://old.lex.uz/docs/5899498.

3. Продвижение участия женщин в политике в регионе ОБСЕ: сборник переводов практик. Опубликовано Бюро ОБСЕ по демократическим институтам и правам человека (БДИПЧ) ОБСЕ. –Варшава, 2016. –С. 115. Elektron manba: https://www.osce.org/files/f/documents/6/6/230151.pdf.

4. Пособие по провидению гендерного аудита для исползования в националных платформах форума гражданского общества стран восточного партнерства. –С. 27. Elektron manba: https:// Gender-Audit-Russian-2-1.pdf.

5. Гендерное бюджетирование. https://www.uzdaily.uz/ru/post/26775.